



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Iste'mol kayfiyati sharhi

2025 YIL III CHORAK

- Daromad subindeksi
- Xarajat subindeksi
- Kredit subindeksi
- Jamg'arish subindeksi



Ushbu sharhda respondentlarning daromadlari va iste'mol xarajatlari tarkibi, pul-mablag'larini jamg'arishga bo'lgan moyilligi, kelgusidagi xarajatlari, shuningdek, kreditga bo'lgan ehtiyojlari tahlil qilingan.

Rezyume

So'rov natijalariga¹ ko'ra, joriy yilning III choragida aholining iste'mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar saqlanib qolgan va umumiy barqarorlik davom etgan. Shu bilan birga, ushbu davrda kreditga bo'lgan talabning biroz pasayishi qayd etilgan.

Respondentlarning daromadlari o'sishi bo'yicha ijobiy kutilmalari yanada yaxshilanib, aholining iqtisodiy faollik va moliyaviy barqarorlikka bo'lgan ishonchi saqlanib qolmoqda.

Xarajatlarga oid kutilmalarida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Kutilmalarning barqaror shakllanishi aholining iste'mol faolligi oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

So'rov qatnashchilarining jamg'arishga bo'lgan moyilligi yuqori saqlanib, jamg'arish hajmi o'tgan chorakka nisbatan biroz oshgani qayd etildi. Bu holat aholining moliyaviy intizomi va o'z iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ehtiyotkor yondashuvidan dalolat beradi.

Mazkur davrda kreditga bo'lgan talab biroz pasayishda davom etdi. Bu so'rov ishtirokchilarining moliyaviy xatarlarga nisbatan ehtiyotkor munosabatini ifodalaydi.

Umuman olganda, aholining kelajakdagi daromadiga ishonchi yuqori bo'lishiga qaramay, ular qarz olishda ehtiyotkorlikni oshirish orqali o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlashni afzal ko'rmoqdalar.

¹ 2025-yilning sentyabr oyida iste'mol kayfiyatini o'rganish maqsadida o'tkazilgan so'rovlarda jami 3 700 dan ziyod respondentlar ishtirok etdi.

Daromad subindeksi


Iqtisodiyotdagi faollikning yuqoriligi so'rov qatnashchilari daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Daromad indeksi III chorakda biroz oshdi. Xususan, ushbu ko'rsatkich II chorakka nisbatan 1,2 bandga o'sib, 71,9 bandni (2024-yilning mos davriga nisbatan ham 1,2 bandga yuqori) tashkil etdi (1-2-rasmlar).

Iqtisodiyotdagi umumiy faollikning yuqori darajada saqlanib qolayotgani, mehnat bozorida bandlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi hamda ish haqi fondlari o'sishi, almashuv kursining mustahkamlanishi va inflyatsiya darajasining nisbatan barqaror bo'lishi aholining real xarid qobiliyatini saqlab qolishga xizmat qildi.


Respondentlarning 67 foizi kelgusi 12 oyda daromadlari oshishini kutmoqda. Daromadi kamayishini ta'kidlaganlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan biroz kamaydi. O'z navbatida, daromadlari o'zgarmasligini kutayotganlar ulushi o'tgan chorak darajasida qolgan.

Ushbu tendensiya daromadlar shakllanishi bo'yicha barqaror ijobiy kutilmalarning davom etayotganini anglatadi (3-rasm). Shuningdek, 2024-yilning mos davriga nisbatan daromadlari oshishini kutayotganlar ulushi 2,9 foiz bandga ortgan.

1-rasm. Daromad subindeksi (band)




2-rasm. Daromad subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

3-rasm. Daromadlari o'zgarishi kutilmalari bo'yicha javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)



4-rasm. Daromadlar kesimida javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

2025-yilning III choragida javob beruvchilar orasida daromadlari oshishini kutganlar ulushi biroz o'sgan. Bu kutilma, asosan, 3–5 mln so'm, 7–10 mln so'm va 20 mln so'mdan yuqori daromadli qatlamlarda kuzatilgan. Shu bilan birga, daromadi kamayishini kutganlar ulushi 3 mln so'mdan 10 mln so'mgacha hamda 15 mln so'mdan yuqori daromadli qatlamlarda biroz pasaygan.

Asosiy daromad manbalari sifatida rasmiy oylikni bildirganlar ulushi II chorakka nisbatan 6 foiz bandga kamayib, 62 foizni tashkil etdi. Bundan tashqari, o'tgan chorakka nisbatan kunlik daromad oluvchilar biroz ko'paygan va mulk ijarasidan daromad oluvchilar ulushi kamaygan. Tomorqa, tadbirkorlik, savdo, pul o'tkazmalari, boshqa yollanma ishlar, stipendiya va nafaqa hamda dividend orqali daromad oluvchilar ulushi avvalgi davrdagi darajasida qolgan (5-rasm).

2025-yilning III choragida respondentlarning katta qismi kelgusida daromadlari oshishini kutmoqda. Ayniqsa, savdo, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari, kommunal hamda maishiy xizmatlar sohalarida faoliyat yurituvchilarning asosiy qismi daromadlari o'sishini kutmoqda.

5-rasm. Respondentlarning daromad manbalari (ulushi, foizda)**6-rasm. Faoliyat sohalari kesimida daromadlari o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda) ²**

Sohalar	ko'payadi	o'zgarishsiz qoladi	kamayadi
savdo	81	13	5
AT va OAV	81	15	4
kommunal xizmat	73	17	10
maishiy xizmat	73	25	2
turizm	72	20	7
kafe-restoran	72	19	9
fan-ta'lim	70	22	8
qishloq xo'jaligi	69	18	13
davlat boshqaruvi	66	24	9
qurilish	66	21	13
ishlab chiqarish	66	25	9
boshqa	66	23	12
tibbiyot	65	26	9
tashish xizmati	63	25	12
bank va moliya	63	27	10

■ yashil rang — yuqori ulush / ijobiy kutilma
■ sariq rang — o'rtacha daraja
■ qizil rang — past ulush / salbiy kutilma

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Turizm, kafe-restoran va fan-ta'lim sohalarida ham ijobiy kutilmalar ustuvor bo'lib, bu turistlar oqimi ortishi hamda ta'lim xizmatlariga talabning o'sishi bilan izohlanadi.



Shuningdek, qishloq xo'jaligi, davlat boshqaruvi, qurilish va ishlab chiqarish sohalaridagi respondentlarning ham 65–70 foizga yaqini daromadlari ko'payadi deb hisoblagan. Bu kutilmalar mavsumiy ishlar, infratuzilma loyihalari va ayrim byudjet xodimlari maoshlarining oshirilishi bilan bog'liq (6-rasm).

Xarajat subindeksi

2025-yilning III choragida xarajatlar bo'yicha kutilmalarda sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Xarajatlar bo'yicha subindeks 77,8 bandni tashkil etib, o'tgan chorak darajasida saqlanib qoldi (7-8-rasmlar).

Ushbu davrda xarajatlar subindeksi shakllanishi asosan, ta'lim yili boshlanishi, ichki turizm faolligining davom etishi, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalaridagi mavsumiy faollik hamda xizmatlar sohasidagi xarajatlar miqdorining barqarorligi bilan bog'liq bo'ldi.

² Ranglar qaysi sohada iste'mol yoki faollik o'zgarishini anglatuvchi indikatoridir



7-rasm. Xarajat subindeksi (band)**8-rasm. Xarajat subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

So'rovnoma qatnashganlarning 77 foizi kelgusi 12 oy mobaynida o'z xarajatlarning oshishini kutmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan chorak darajasida shakllangan bo'lib, iste'molchilarning xarajatlar bo'yicha kutilmalari barqarorligini anglatadi.

Kelgusida xarajatlari o'zgarmasligini va qisqarishini kutganlar ulushi o'tgan chorak darajasida saqlanib qoldi (9-rasm).

2025-yil III choragida ham kam va o'rta daromadli respondentlar (3 mln so'mgacha, 5-10 mln so'm hamda 10-15 mln so'm) kelgusi chorakda xarajatlarning oshishini ko'proq kutmoqdalar.

9-rasm. Kelgusi xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**10-rasm. Daromadlar kesimida xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

11-rasm. Xarajatlar bo'yicha kutilmalar, aholi daromadlari kesimida (ulushi, foizda)³

Kelgusi xarajatlar	ta'lim	uy-joy ta'miri	boshqa-lar	avtomobil	davolanish	to'y	uy-joy xaridi	xarid qilmaymiz	maishiy texnika	sayohat	mebel-lar xaridi	oilaviy bayram	elek-tron qurilma
2 mln.so'mgacha	22	27	10	6	12	9	6	12	5	6	6	4	2
2-3 mln.so'm	27	23	16	8	10	9	5	10	6	4	5	4	2
3-5 mln.so'm	22	24	14	10	14	9	9	10	6	7	7	5	3
5-7 mln.so'm	20	23	12	9	12	10	6	10	7	7	6	6	3
7-10 mln.so'm	21	24	14	11	11	7	9	10	9	6	9	6	3
10-15 mln.so'm	22	23	18	16	8	9	11	9	9	8	9	8	4
15-20 mln.so'm	26	22	20	12	14	12	14	8	10	10	10	3	3
20-30 mln.so'm	24	23	19	14	8	18	14	5	9	15	7	8	4
30 mln.so'mdan yuqori	21	13	3	18	8	5	11	8	13	11	11	3	0

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Shu bilan birga, o'rta va yuqori daromadli qatlam (5-7 mln so'm, 10 mln so'mdan 20 mln so'mgacha daromadga ega bo'lganlar) orasida xarajatlar qisqarishini kutganlar ulushi yuqori bo'lib qolmoqda.

So'rov natijalari aholining asosiy sarf yo'nalishlari bo'yicha sezilarli o'zgarish kuzatilmaganini ko'rsatmoqda. Ta'lim, uy-joy ta'miri, avtoulov sotib olish va sog'liqni saqlashga oid xarajatlar aholining barcha daromad qatlamlarida muhim ulushni tashkil etib, ustuvor yo'nalish sifatida saqlanib turibdi (11-rasm).

Joriy chorak natijalariga ko'ra, respondentlarning yosh guruhlarida kesimida xarajat yo'nalishlarida muayyan farqlar kuzatilgan. Xususan, 18–30 yoshdagilar asosan, uy-joy ta'miri va ta'lim xarajatlarini va o'rta yosh vakillari (31-40 yoshlilar) uy-joy ta'miri va davolanishni rejalashtirayotganini bildirgan.

Shu bilan birga, 50 yoshdan yuqori bo'lgan respondentlar ko'proq davolanish hamda boshqa turdagi shaxsiy va maishiy xarajatlarni muhim deb hisoblashgan. Bu tendensiya ushbu yosh guruhida sog'liqni saqlash va hayot sifatini ta'minlash bilan bog'liq ehtiyojlarning ortib borayotganini anglatadi (12-rasm).

³ Jadval kutilayotgan har bir xarajat turi bo'yicha respondentlarning javoblari ulushi qaysi yo'nalishda ko'proq yoki kamroq shakllanganligini bildiradi (qizil rang – yuqori, sariq rang – o'rtacha va yashil rang past ko'rsatkich).

12-rasm. Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)


Yosh chegarasi	uy-joy ta'miri	ta'lim	davolanish	boshqalar	xarid qilmadik	to'y	maishiy texnika	oilaviy bayram	avtomobil	mebel-lar xaridi	uy-joy xaridi	sayohat	elek-tron qurilma
18 yoshdan kichik	23	34	9	13	9	6	6	8	6	6	4	5	1
18-30 yoshgacha	24	28	15	16	10	10	9	8	9	6	6	5	5
31-40 yoshgacha	28	19	20	17	12	6	8	9	7	5	6	6	4
41-50 yoshgacha	29	25	19	16	14	8	6	7	6	6	4	4	3
51-60 yoshgacha	33	15	22	7	15	11	5	5	4	6	5	6	1
60 yoshdan katta	30	11	39	16	7	7	11	9	7	7	7	2	2

- – bu yosh guruhi muayyan turdagi xarajatlarni amalga oshirganlar ulushi **yuqoriligi**;
■ – **o'rta darajada** shakllangani;
■ – **past darajada** ekanligini ko'rsatadi.

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusi chorakda respondentlar uy-joy ta'miri, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda oilaviy bayram va tadbirlarga yirik sarflar qilishni rejalashtirmoqda. Bu yo'nalishlar aholi iste'molining muhim qismini tashkil etadi (13-rasm).



Shuningdek, uy-joy, avtoulov va maishiy texnika xaridi, to'y marosimlari hamda sayohat qilish kabi xarajatlarga bo'lgan kutilmalarning ulushi ham yuqori bo'lib, bu sohalarda talabning kelgusi davrda ham barqaror saqlanishiga ishora qiladi (13-rasm).

13-rasm. Yirik xaridlar/xarajatlar o'zgarishi (ulushi, foizda)

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.



Kredit subindeksi

So'nggi ikki chorakda kredit subindeksida biroz pasayish kuzatilmoqda. Joriy yilning III choragida kredit subindeksi avvalgi chorakka nisbatan 3,3 bandga pasayib, 63,1 bandni tashkil etdi (14-15-rasmlar).

14-rasm. Kredit subindeksi (band)**15-rasm. Kredit subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusi 12 oyda kredit olishni rejalashtirayotganlar ulushi biroz kamaygani qayd etildi. Bu so'rov ishtirokchilari orasida qarz yukining oshgani va kredit olishga talabning biroz pasaygani bilan bog'liq bo'lishi mumkin (16-rasm).

16-rasm. Kelgusidagi kreditga bo'lgan talab o'zgarishi bo'yicha kutilmalar taqsimoti (ulushi, foizda)**17-rasm. Daromadlar darajasi kesimida kreditga bo'lgan talab (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

O'rganishlarga ko'ra, 2025-yilning I yarim yilligi bo'yicha aholining umumiy qarz yuki 33 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 61 foiz qarzdorlarda qarz qaytarish bo'yicha qiyinchiliklar mavjud. So'ralganlarning 68 foizi keyingi 6 oyda qarz olishni rejalashtirmagan.

Kelgusi davrda kredit olishni rejalashtirayotganlar ulushi 5–7 mln so'm daromadga ega aholi guruhlarida oshgani kuzatilgan bo'lsa, boshqa barcha daromad toifalarida mazkur ko'rsatkich pasaygan.

Shu bilan birga, oylik daromadi 15–20 mln so'm va 20 mln so'mdan yuqori bo'lgan respondentlar boshqa guruhlariga nisbatan kelgusida kreditga bo'lgan talabning kamayishini ko'proq kutmoqdalar (17-rasm).

Respondentlar orasida kelgusida kreditga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bunda aholining asosiy qismi kredit mablag'larini uy-joy ta'miri, ta'lim olish, davolanish, to'y marosimlarini o'tkazish hamda avtomobil sotib olish kabi maqsadlarda yo'naltirishni rejalashtirmoqda.

Shuningdek, ayrim respondentlar tomonidan maishiy texnika sotib olish va sayohat xarajatlarini qoplash uchun ham kredit vositalaridan foydalanish niyati qayd etilgan.

Umuman olganda, mazkur natijalar aholining o'rta muddatli moliyaviy rejalarida mazkur yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etayotganini, shu bilan birga, kredit mahsulotlariga bo'lgan talabning barqaror o'sish tendensiyasi saqlanayotganini anglatadi (18-rasm).

18-rasm. Kelgusida kreditga va xaridlarga bo'lgan talabning shakllanishi (ulushi, foizda)

	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	davolanish	avtomobil	xarid qilmaymiz	to'y	uy-joy xaridi	mebel-lar xaridi	maishiy texnika	sayohat	oilaviy bayram	elektron qurilma
oshadi	28	19	12	12	10	7	9	10	7	8	7	4	2
biroz oshadi	26	24	16	12	11	5	11	9	7	8	8	8	4
o'zgarishsiz qoladi	22	24	12	10	10	12	10	9	8	7	6	6	3
biroz kamayadi	25	18	16	9	11	6	9	7	10	8	6	8	5
kamayadi	21	19	15	10	12	12	10	7	6	6	7	5	2
kreditga ehtiyoj yo'q	20	22	14	12	9	13	8	7	7	6	7	4	2

■ – ushbu turdagi xarajatlarni amalga oshirishni rejalashtirganlar ulushi **yuqoriligi**;
■ – **o'rta** darajada shakllangani
■ – **past** darajada ekanligini ko'rsatadi.

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Jamg'arish subindeksi

Jamg'arishga bo'lgan moyillik oshib, moliyaviy ehtiyotkorlikka bo'lgan intilishi kuchaymoqda. Joriy yilning III choragida jamg'arish kayfiyati subindeksi o'tgan chorakka nisbatan 0,7 bandga yaxshilanib, 68,9 bandni tashkil etdi (19-20-rasmlar).


Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 1 bandga yuqoriligi aholining jamg'arishga bo'lgan moyilligi o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Jamg'armalari oshishini kutayotgan respondentlar ulushi yuqori darajada shakllanib kelmoqda (21-rasm). Bu iqtisodiy sharoitlarning barqarorligini va jamg'arishga bo'lgan intilish yuqoriligini bildiradi.


2022-yilning III choragidan 2025-yilning III choragigacha bo'lgan davrda aholining jamg'armalari yetariligi bo'yicha kutilmalarda barqarorlik kuzatilgan. Jamg'armaga ega bo'lmaganlar ulushi 2022-yilgi 41 foizdan joriy yilda 38 foizgacha kamaygan. Bu holat aholining ma'lum qismida jamg'arish imkoniyatlarining ortib borayotganini anglatadi.

Shu o'rinda, 1 oygacha yetarli jamg'armasi borlar ulushi ham barqaror darajada saqlanib, oxirgi chorakda 32 foizni tashkil etgan.



19-rasm. Jamg'arish subindeksi (band)



20-rasm. Jamg'arish subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

21-rasm. Respondentlarning jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)**22-rasm. Jamg'armaning yetarlilik darajasi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.



Shu bilan birga, 1–3 oylik jamg'armaga ega bo'lganlar ulushi 16 foiz atrofida va 3–6 oy va 6 oydan ortiq jamg'armasi bo'lganlar ulushi so'nggi 2 yil davomida deyarli o'zgarishsiz, mos ravishda 6–8 foiz oralig'ida saqlanib qolgan.

Umuman olganda, aholining jamg'armalari bo'yicha kutilmalari ehtiyotkorlik va barqaror tendensiya bilan tavsiflanadi. Bu esa moliyaviy intizomning shakllanib borayotgani hamda qisqa muddatli zaxiralar saqlash amaliyoti kengayib borayotganini namoyon etmoqda (22-rasm).

So'rovnoma natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning ko'pchiligi moliyaviy holatini ijobiy baholagan. 2024-yil III choragidan 2025-yil III choragigacha moliyaviy holatini yaxshilangan deb hisoblovchilar ulushi ortgan bo'lsa, moliyaviy sharoitlari yomonlashgan deganlar kamaygan. Bu aholi moliyaviy barqarorligi va daromad darajasining yaxshilanib borayotganini hamda iqtisodiy faoliyatda ijobiy kayfiyat shakllanayotganini ko'rsatadi (23-rasm).

O'z navbatida, so'nggi yillarda depozitlar hajmidagi barqaror o'sish aholining moliyaviy ishonchi tiklanayotganini va milliy valyutadagi omonatlarga qiziqish ortayotganini ifodalamoqda.



Ma'lumot uchun, 2025-yilning III choragida milliy valyutadagi muddatli omonatlar 2024-yilning mos davriga nisbatan 45,4 foizga oshdi (24-rasm).

23-rasm. Respondentlarning moliyaviy holati o'zgarishi (ulushi, foizda)**24-rasm. Aholi muddatli depozitlari o'sishi (yillik foizda)**

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari va kuzatuvlari asosida.

Iqtisodiyot bo'yicha kutilmalar

So'rov natijalari aholi orasida iqtisodiy optimizm yuqori darajada ekanini tasdiqladi. Qatnashchilarning qariyb uchdan ikki qismi (67 foiz) mamlakat iqtisodiy rivojlanishi yanada tezlashishiga ishonch bildirgan. Qolganlardan 25 foizi vaziyat barqaror bo'lib qolishini, 9 foizi esa ma'lum xavotirlarni bildirgan (25-rasm). Aholining o'rta muddatli iqtisodiy kutilmalarida ijobiy tendensiya saqlanayotganini ko'rsatadi.

25-rasm. Kelgusi 12 oy uchun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**26-rasm. Kelgusi 3 yilda mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Iqtisodiyotning rivojlanishini kutayotganlar ulushi 77 foizni tashkil etgan bo'lsa, barqarorlikni kutayotganlar ulushi 18 foizni tashkil etgan. Bundan tashqari, iqtisodiy vaziyatga nisbatan salbiy fikr bildirganlar ulushi avvalgi chorakdagi ko'rsatkichga nisbatan 2 foiz bandga kamayib, 5 foizni tashkil etdi (26-rasm).

Iste'mol kayfiyati indeksi

Markaziy bank tomonidan aholining keng soha vakillarini qamrab olgan holda o'tkaziladigan so'rovlar natijalari asosida berib boriladigan **iste'mol kayfiyati indeksi⁴ (IKI)** ni hisoblashda so'rov ishtirokchilarining kelgusidagi **daromadlari, xarajatlari, kreditlari va jamg'armalari o'zgarishi** bo'yicha tanlangan javob variantlari sonidan kelib chiqib shakllantiriladi.

Bunda respondentlar tomonidan belgilangan javoblar variantlari quyidagi vaznlar orqali umumlashtiriladi va normallashtiriladi:

sezilarli darajada ko'payish/oshish (ijobiy) – 100;

biroz ko'payish/oshish (ijobiy) – 75;

neytral javob (o'zgarishsiz) – 50;

biroz kamayish (biroz salbiy) – 25;

sezilarli darajada kamayish (salbiy) – 0.

Agar hisoblangan subindeks ko'rsatkichi 50 bandga teng bo'lsa, so'rov ishtirokchilari o'rganilayotgan kutilmalari o'zgarmaganini ko'rsatadi. Agar 50 banddan yuqori bo'lsa, kutilmalar oshayotganini bildiradi. Agar subindeks ko'rsatkichi 50 banddan past bo'lsa, kutilmalar pasayganini bildiradi.

Shuningdek, subindeks 100 bandga teng bo'lishi barcha respondentlar yuqori oshishini kutayotganini anglatadi, 0 bandga teng bo'lishi barcha sezilarli kamayishini bildirganini anglatadi.

⁴ Indeks ko'rsatkichi 0 dan +100 oralig'ida bo'lib, ko'rsatkich +100 ga yaqinlashgani sari iste'mol kayfiyatidagi ijobiylikni ifodalaydi.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025 yil

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22